

**INGLIZ TILINI O’RGATISH JARAYONIDA MADANIYATLARARO  
MULOQOT ETIKETINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Buxoro davlat universiteti*  
*Ilmiy rahbar: M.F.Nematova*  
*talaba: S.L.Sharipova*

Bugungi kunda chet tillarni, xususan ingliz tilini o’qitish jarayonlarini integrativ yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida tashkil etishning innovatsion tizimlarini ishlab chiqishga e’tibor va investitsiya ortgan. Bundan kelib chiqadiki, chet tillarni o’qitish jarayonlari va usullarini targ’ib etish va rivojlantirishning asosiy dolzarb masalalardan biridir. Til o’qitish metodikasidan shu narsa aniqki, boshqa til o’rgatilayotganda nafaqat uning til hususiyatlari balki, madaniyatiga ham e’tibor berilishi kerak. Aks holda til o’rganish jarayonida ma’lum bir tushunmovchiliklar yoki qo’pol hatoliklar vujudga kelishi mumkin.

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning qarashlariga ko’ra shunday deyiladi: “Tilni o’rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo’lgan o’sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi”.

O‘zbek tilshunosi N.Mahmudovning asarlarida o‘ziga xos tarzda bayon etilgan fikrni ko‘rish mumkin: “...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor-budi, shakli aks etadi. Ma’lum bir xalqning tilini bilish uning butun borlig‘ini anglash demakdir.”

M.Brok va V.Nagasaka kabi mutaxassislar til o’rganishning barcha bosqichlarida madaniyatlararo yoki pragmatik kompetensiyani hisobga olish kerakligini ta’kidlaydilar<sup>1</sup>. Ammo, bir qancha qarshi fikrlar ham sanab o’tilishi joiz, Sardining 2002-yildagi kitobida “ingliz tilini o’qitish madaniy kontekstlardan individual ravishda o’rganish kerak”, 2003-yilda Bennet tomonidan ham bir nechta noto’g’ri fikrlar bildirilgan. Birinchidan, til o’quv dasturlari allaqachon ishlab chiqilgani va uni butunlay o’zgartirib bo’lmasligini ta’kidlashgan. Ikkinchidan, ko’plab o’qituvchilar tomonidan biror bir millatning tilini o’zini emas madaniyatini ham o’rgatish qiyin jarayondek tushunilgan. Uchinchidan, ba’zi oliy ta’lim muassasalari ham madaniyat kompetensiyasini til bilan chambarchas o’rgatishdan ko’ra talabalarning milliy test tizimidan yuqori bal to’plashiga ko’proq ahamiyat berishgan.

Til o’rgatish jarayoni ma’lum umumiy va kommunikativ kompetensiya asosida amalga oshiriladi: UMUMIY: deklarativ bilimlar (zamonaviy texnologiyalarni qo’llay olish malakasi, tili o’rganilayotgan mamlakat madaniyatidan habardorlik), eksiztensial

1. Brok va Nagasaka. Pragmatic Content in Global and Local Textbooks 2005; 34-40-b [Til o’qitish asoslari-2005;12-23-b]

kompetensiya (tilni egallash va muloqotga kirishish, ijodkorlik qobiliyatlari), KOMUNIKATIV: lingvistik kompetensiyalar (leksik, grammatik, fonologik, orfoepik), sotsiolingvistik kompetensiyalar (xushmuomalalik qoidalari, dialekt va urg'u), va pragmatik kompetensiyalar kiradi. Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar qatoriga Bardos Kanal va Sveyn (1980) *madaniyat* kompetensiyasini ham o'z modellariga kiritishgan. Ularning fikriga ko'ra, madaniyat ham boshqa kompetensiyalar singari muhim va ularning ajralmas bir bo'lagidir.

Til o'rgatish jarayonida o'rganilayotgan tilning madaniyatini o'quvchilar o'rtasida qanday qilib bir vaqtning o'zida olib borish mumkin degan savolga E.Peterson va B.Coltrane til o'rgatishda ikki tildagi maqollar o'xshashligi va farqli tomonlarini topish kerakligini aytadi. Ularning fikricha maqollardan madaniyatni o'rganish usuli sifatida foydalanish, madaniyat haqidagi stereotiplar va noto'g'ri tasavvurlarni tahlil qilish, shuningdek, o'quvchilarga o'z ona tilisi madaniyatidagi qadriyatlarni chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.'

Shaxsiy kuzatishlarimizdan kelib chiqib ayta olamizki, O'zbekistonda til o'rganuvchilar orasida bir qancha madaniyatlararo muloqot doirasida to'g'rilanishi kerak bo'lgan qarashlar bor. Gapimizning isboti sifatida misol keltiramiz: Farg'ona viloyati, Bog'dod tumanida joylashgan 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfida ingliz tili fanining birinchi darsida "Guess What" darsligidagi asosiy qahramonlar tanishtirilayotganda, navbat qora tanli qahramonga yetib kelganda birdan sinfda kulgu boshlangan, o'quvchilar qora tanli qahramonni ustidan kulishdi va natijada hammani fikri chalg'ib ketdi. Bu vaziyatda asosiy masala o'quvchilarning ingliz madaniyatidan bohabarliklarida ko'rinadi. Ilmiy ishimizni keyingi bosqichlarini 5-6- va 7- sinf o'quvchilari doirasida ushbu masalani chuqurroq o'rganib, ommaviy so'rovnomalar, sinf rahbarlar va chet til o'qituvchilari bilan yakka tartibdagi suhbat tarzida davom ettirish ma'qul bo'ladi. Bundan asosiy maqsad o'quvchilar o'rtasida yoshga oid madaniy muloqot etiket muommolarini aniqlash va farqlash. Pirovardida, o'quvchi va o'qituvchilarga til o'rgatishda madaniy mazmunning ahamiyatini, chet tillar madaniyatini o'rganish til o'rganish jarayoniga qanchalik ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatishdir. Madaniyatni o'qitish o'quvchilarga odamlarning turmush tarzi, qadriyatlari va urf-odatlar haqida ma'lumot berganligi sababli chet tilni o'rganuvchilar til bilan bir qatorda u bilan uzviy bog'liq bo'lgan madaniyat haqida ham zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar va ayniqsa o'zbek til o'rganuvchilar orasida chet til, asosan, ingliz madaniyati bilan bog'liq muloqot etiket me'yorlaridan chiqish holatlari bartaraf etiladi.

## REFERENCES

1. M.Byram & P.Gerundy. / Context and Culture in language teaching and learning // 2003, P. -57.

3. Kramersch / Language and culture // 2006
4. Sardi C. / On the relationship between culture and ELT // Studies about Languages, P-103-107.
5. M.Brock & Y.Nagasaka / Pragmatic Content in Global and Local Textbooks // 2005, P-34-40.
6. B.Canale and Swain / Language // 1980, P-54-55.
7. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово. 2008. – 264 с.
8. Makhkamova G.T./Intercultural Communication (Theory and Practice). – Tashkent: Tamaddun, 2017
9. Hofstede G./ Culture’s Consequences. – San Francisco: Sage Publication, 1997
10. E.Peterson and B.Coltrane/Culture in Second Language Teaching/Dec 2003
11. Ibragimova Diorom Abdurakhmanovna. (2022). DEVELOPING CLASSROOM MANAGEMENT STRATEGIES IN EFL SETTINGS . PEDAGOGS Jurnal, 20(1), 62–68.



# SERTIFIKAT

NEMATOVA MOXIBEGIM FAZLIDDINOVNA

SHARIPOVA SADAF LATIPOVNA

INTERTEKSTUALLIKNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI



*nomli maqolasini "Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi"  
respublika ilmiy jurnalida chop etgani uchun berildi*

Bosh muharrir: A.B.Vahobov



08.04.2024

Berilgan sana:

<http://web-journal.ru>